

OXIRGI YILLARDA KURASH SPORTINING ISTIQBOLLARI MAZMUNI

Xujomov Bobomurod Xaytmurodovich

Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrası professor v.b.

Annotatsiya: *Maqolada kurash sportining respublikamizda va dunyodagi oxirgi yillardagi yutuqlari va keying istiqbollari mazmuni haqida soʻz borgan.*

Kalit soʻzlar: *kurash, istiqbol, kurash istiqboli, kurash – 2023, kurash – 2024, belbogʻli kurash.*

Mardlik, bagʻrikenglik, oliyanoblik, halollik timsoli boʻlgan azaliy qadriyatimiz kurashning xalqaro maydondagi rivojida yangi davr boshlanmoqda.

Har qanday muvaffaqiyat eʼtibor va ragʻbat bilan qoʻlga kiritiladi. Ming yillar davomida xalqimiz qalb ardogʻida sayqallanib kelgan kurashning xalqaro sport maqomiga erishish yoʻli ham fidoyilik, moddiy va maʼnaviy ragʻbat hosili boʻldi, deyish mumkin. Bugun jahon sport terminologiyasida »Kurash«, »Toʻxta«, »Yonbosh«, »Gilam«, »Halol« kabi qadriyatimizga aylanib ketgan soʻzlarning mustahkam oʻrin olishida, Vatanimizning dunyo xalqlari orasida oʻz oʻrni borligini koʻrsatib kelayotganligida kurashning alohida oʻrni bor, albatta. Zero, milliy sportimiz boʻyicha turli mamlakatlarda oʻtkazilayotgan qitʼaviy chempionatlar, turnirlar, xalqaro hamkorlik aloqalarining maʼlum bir yoʻnalishlari oʻrnatilishida, mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Bundan uch yil muqaddam davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida Xalqaro kurash assotsiatsiyasi, O'zbekiston kurash federatsiyasi, Xalqaro kurash institutining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bu esa kurashning Osiyo o'yinlari tizimidagi mavqeyi mustahkamlanishiga, Xalqaro kurash assotsiatsiyasiga a'zo 130 ga yaqin davlatlardagi milliy kurash federatsiyalari faoliyati jonlanishiga xizmat qilmoqda. Dunyoning besh qit'asi bo'ylab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun World Series Pro (WSP) turnirlarning tashkil etilishi asnosida ota-bobolarimizdan meros bo'lgan milliy o'yinning sport turi sifatida umumjahon durdonasiga aylantirish ishlari jadallik bilan olib borilishi ta'minlanmoqda.

Xo'sh, 2024-yil o'zbek kurashi rivojida, uni xalqaro maydonda ommalashtirish tizimida qanday o'rin tutadi?



– Bu yil ham o'tgan yillardagidek xalqaro musobaqalarga, turli kurash tadbirlariga tig'iz yil bo'lishi kutilmoqda. IKAning 2024 yilgi taqvim rejasiga asosan yil davomida turli davlatlarda 48 ta sport musobaqalari va kurash tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shundan chempionatlar va turnirlar 15 ta, murabbiylik va hakamlik seminarlari 16 ta, kompleks o'yinlar 3 ta shuningdek, antidoping bo'yicha WADA va ITA 8 ta seminarida kurashning xalqaro rivoji muhokama qilinishi belgilangan. Joriy yilning ilk oylarida Yevropada Italiya kurash akademiyasi o'z faoliyatini boshlagani, Tailand, Kosta-Rika, Tojikiston, Qozog'iston, Afg'oniston, Turkiya, Rossiya, Turkmaniston, Tailand kabi davlatlarda ichki chempionatlar o'tkazilgani kurash boshqa mamlakatlarda ham o'z o'rnini topib borayotganini ko'rsatmoqda. Joriy yilning birinchi choragi holatida AIMS, SportAccord, WADA tizimidagi yig'in va tadbirlarda kurashni ommalashtirish, uning ommalashgan sport turlari orasidagi o'rni borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilingani kelgusidagi ishlar ko'lami nechog'li zalvorli ekanidan dalolat. Ushbu tarixiy yutuqlarga erishishda davlatimizning, shaxsan Prezidentimizning milliy sportimizga berayotgan alohida e'tibori kurashning jahondagi taraqqiyotini yangi

bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir, – deydi Xalqaro kurash assotsiatsiyasi matbuot kotibi Jamshid Namozov.

Belbog'li kurash bo'yicha navbatdagi jahon chempionati Amerika Qo'shma Shtatlari poytaxti Vashington shahrida o'tkaziladi. Bu haqda O'zbekiston belbog'li kurash federatsiyasi matbuot xizmati xabar berdi.

Ma'lum qilinishicha, Jahon belbog'li kurash assotsiatsiyasi prezidenti Azizbek G'aniyev, O'zbekiston belbog'li kurash federatsiyasi raisi Ravshan Dastirov yetakchiligidagi mutaxassislar Vashington shahridagi BOWIE universiteti sport menejeri, professor Adam Kaya, Atletik-talaba departamenti direktori V.Rene Xovard bilan uchrashib, belbog'li kurash bo'yicha kattalar o'rtasidagi jahon chempionatini mazkur universitet sport majmuasida o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borgan.

O'zbekistonlik mutasaddilar BOWIE universitetida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishgan hamda joriy yilning dekabr oyida o'tadigan jahon chempionati va uning doirasidagi tadbirlar, belbog'li kurashni AQSHda rivojlantirish istiqbollari xususida universitet mutaxassislari bilan fikr almashgan.

Bundan tashqari jahonda ham kurash sport turi kundan-kun yanada rivojlanmoqda. Ushbu sportni yanada rivojlantirish va insonlarni sog'lomlashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarda musobaqalar olib borilmoqda. 2022 yilning 29-iyul kuni IKA prezidenti bilan kurashning yangi istiqbollari muhokama qilindi

29-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vaziri Adxam Ikramov shu kunlarda amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi (IKA) prezidenti, Osiyo Olimpiya Kengashining Osiyo o'yinlari departamenti direktori Haydar Farmonni qabul qildi. Shuningdek, mazkur uchrashuvda Milliy Olimpiya qo'mitasi raisining o'rinbosari Sherzod Tashmatov va boshqa mas'ul xodimlar ishtirok etishdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi hamda Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan murabbiylar va hakamlar, qolaversa sportchilar o'rtasida tajriba almashish imkoniyatini yaratish, xalqaro nufuzli musobaqalarni tashkil etishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Darhaqiqat, kurash asrlar davomida o'zbek xalqining eng ommaviy va sevimli milliy o'yinlari qatorida e'zozlab kelingan. Ushbu sport yakkakurashning qadimiy turi bo'lib, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, uning yoshi uch yarim ming yilga borib taqaladi.

IKA prezidenti tomonidan kurash sport turining xalqaro maydondagi rivoji, o'tkazilayotgan nufuzli musobaqalar, qit'aviy o'yinlarda ishtiroki va joriy yilda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan qit'a va jahon chempionatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ta'kidlash lozim, joriy yilning o'tgan olti oyi mobaynida kurashning xalqaro rivoji borasida bir qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 17-21-mart kunlari Tojikistonning Dushanbe shahrida kurash bo'yicha kattalar o'rtasida Osiyo chempionati va Osiyo-Okeaniya Kurash konfederatsiyasining navbatdagi Kongressi bo'lib o'tdi. Mazkur nufuzli chempionatda qit'amizning 24 ta davlatidan 200 nafardan ziyod sara polvonlar g'oliblik uchun gilamga tushdi.

24-27-mart kunlari Xalqaro Kurash instituti bilan hamkorlikda Italiyaning Rim shahrida Yevropa kurash konfederatsiyasiga a'zo mamlakatlarning kurash murabbiylari uchun xalqaro seminar tashkil etildi. Unda 10 ga yaqin mamlakatdan 90 nafar murabbiy ishtirok etdi.

28-30-mart kunlari Hindistonning Mumbay shahrida IKA Ijroiya qo'mitasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish davomida kurashning oldida turgan ko'plab masalalar bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston hukumatining qo'llab-quvvatlashi hamda assotsiatsiya rahbariyatining sa'y-harakatlari bilan kurash sporti Osiyo o'yinlarining barcha dasturlaridan rasman o'rin egalladi.

Shu bilan birga, Sportni rivojlantirish vaziri ham vatani O'zbekiston bo'lgan kurashning ayni kunlarda dunyo miqyosida obro'si ortib borayotgani quvonarli hol ekanligini ta'kidlab, bugungi kunda Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi tarkibiga 130 dan ziyod davlatlar milliy federatsiyalari a'zo bo'lib kirganligi va faoliyat yuritayotganligi kurashning nufuzi qay darajada ortib borayotganining yaqqol ifodasi ekanligini ma'lum qildi.

Qayd etish lozim, 2020-yil 4-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbirlari to'g'ri sida"gi qarori imzolandi.



Mazkur hujjat kurash sportining rivoji yo'lida yangi davrni boshlab berdi. Qaror asosida IKA va uning tarkibidagi milliy federatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, professional kurashchi va mutaxassislarni tayyorlash, kurash sportini yanada ommalashtirish, Respublika va xalqaro media maydonda keng targ'ib qilish, kelajakda kurashni Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish borasida manzilli chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Uchrashuvdan so'ng Milliy Olimpiya qo'mitasida mutasaddilar ishtirokida matbuot anjumani ham tashkil etildi. 20 nafardan ortiq ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan anjumanda kelgusida Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etiladigan nufuzli musobaqalar va bu borada Sportni rivojlantirish vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi hamda O'zbekiston kurash federatsiyasi tomonidan yo'lga qo'yiladigan hamkorlik aloqalari haqida ma'lumotlar berildi.

So'ng so'z o'rnida aytish joiz, asrlar davomida talato'p davralarda, to'y-u sayllarda qonun-qoidasiz o'tkazib kelingan kurashning O'zbekistonning mustaqilligi tufayli sport turi sifatida nom qozonayotgani jonajon Vatanimizning xalqaro hamjamiyatdagi obro'-e'tibori yuksalishiga beqiyos hissa qo'shayotgani bilan qadrlidir.

2024-yilda dunyo bo'ylab tashkil etilishi kutilayotgan kurash musobaqalari, turnirlar, seminarlar va turli tadbirlar kelgusida milliy sportimizning qaddi yanada sarbaland bo'lishiga xizmat qilishi lozimki, bu yo'ldagi ishlar, sa'y-harakatlar ayni maqsadlarga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. R. S. Salomov. Toshkent 2005.
2. Хужамов, Б. Х. (2016). Воспитание детей с помощью подвижных игр. *Молодой ученый*, (11), 1576-1577.
3. Хайтмurodovich, X. B. (2023). Yillik trenerovka siklining tayyorgarlik davrida malakali qo'l to'pi o'yinchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini tashkil etish metodikasi. *PEDAGOGS jurnali*, 26(3), 28-31.
4. Raxmatullayev, T. A., & Xujomov, B. X. (2023). O'zbekistonda basketbol o'yininig rivojlanishi. *Scientific progress*, 4(6), 7-13.
5. Bobomurod, X. (2022). Scientific and methodological problems of the development of the national sport of wrestling. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 10, 194-201.
6. Хужомов, Б. (2022). Научно-методические проблемы развития спортивной борьбы. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(6).

7. Хужомов, Б. Х. (2020). МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ. *Fan-Sportga*, (2), 15-16.
8. Anvar, H. Integrated Approach to Improving Pedagogical Abilities of Future Primary Education Teachers. *JournalNX*, 197-201.
9. Hakimov, F. (2024). THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 164-168.
10. Khujomov, B., & Tangriyev, A. (2019). PROFESSIONAL COMPETENCIES AS INTEGRAL QUALITIES OF A SPECIALIST'S PERSONALITY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(4).
11. Хужомов, Б. Х. (2018). Подготовка борцов на начальном этапе обучения. *Проблемы педагогики*, (1 (33)), 47-49.